

DINSHUNOSLIK YO‘NALISHI TALABALARINING INGLIZ TILI KO‘NIKMALARI ORQALI DEONTOLOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH

Xasanova Dilbar Karimdjano

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada dinshunoslik yo‘nalishi bakalavr talabalarida ingliz tili o‘qitish jarayoni orqali deontologik kompetentlikni shakllantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g‘urur, baynalminalchilik, adolat, yaxshilik, burch, qadr-qimmat, mas‘uliyat, vijdon, halollik, rostgo‘ylik va talabchanlik kabi axloqiy fazilatlarining kasb egalariga, xususan, dinshunoslik soha vakillariga nechog‘li muhim ekaniga e‘tibor qaratiladi. Ingliz tilining to‘rtta asosiy ko‘nikmasi — o‘qish (reading), yozish (writing), tinglab-tushunish (listening) va gapirish (speaking) — deontologik mazmundagi materiallar bilan uyg‘unlashtirilib, talabalarining kasbiy axloq me‘yorlarini chuqur o‘zlashtirishiga zamin yaratish mumkinligi asoslanadi. Tadqiqot natijalari dinshunoslik ta‘limida ingliz tili o‘qitishini deontologik yo‘nalishda takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar beradi.

***Kalit so‘zlar:** deontologik kompetentlik, dinshunoslik, ingliz tili ko‘nikmalari, axloqiy fazilatlar, kasbiy etika, bakalavr ta‘limi.*

ФОРМИРОВАНИЕ ДЕОНТОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ РЕЛИГИОВЕДЕНИЯ ПОСРЕДСТВОМ НАВЫКОВ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы формирования деонтологической компетентности у студентов бакалавриата направления религиоведения в процессе обучения английскому языку. В исследовании особое внимание уделяется значимости таких нравственных качеств, как гуманизм, патриотизм, национальная гордость, интернационализм, справедливость, добродетель, долг, достоинство, ответственность, совесть, честность, правдивость и требовательность, которые являются неотъемлемыми для

представителей профессиональной деятельности, в частности специалистов в области религиоведения.

Обосновывается, что интеграция четырех основных языковых навыков — чтения (reading), письма (writing), аудирования (listening) и говорения (speaking) — с материалами деонтологического содержания способствует более глубокому усвоению студентами норм профессиональной этики.

Результаты исследования предоставляют практические рекомендации по совершенствованию преподавания английского языка в системе религиоведческого образования на основе деонтологического подхода.

Ключевые слова: *деонтологическая компетентность, религиоведение, навыки английского языка, нравственные качества, профессиональная этика, бакалавриат.*

DEVELOPMENT OF DEONTOLOGICAL COMPETENCE AMONG RELIGIOUS STUDIES STUDENTS THROUGH ENGLISH LANGUAGE SKILLS

ABSTRACT

This article examines the issues of developing deontological competence among undergraduate students majoring in religious studies through the process of teaching English. The study emphasizes the importance of moral qualities such as humanism, patriotism, national pride, internationalism, justice, benevolence, duty, dignity, responsibility, conscience, honesty, truthfulness, and high standards, which are essential for professionals, particularly specialists in the field of religious studies.

It is substantiated that the integration of the four core language skills—reading, writing, listening, and speaking—with deontologically oriented materials facilitates a deeper acquisition of professional ethical standards by students.

The research findings provide practical recommendations for improving English language teaching in religious studies education based on a deontological approach.

Keywords: *deontological competence, religious studies, English language skills, moral qualities, professional ethics, undergraduate education.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida mutaxassislarining kasbiy kompetentligi faqat bilim va ko'nikmalar yig'indisi bilan emas, balki ularning axloqiy brendligi, ya'ni deontologik kompetentligi bilan ham o'lchanadi. Deontologiya — burch, mas'uliyat va kasbiy axloq haqidagi ta'limot bo'lib, an'anaviy ravishda tibbiyot va pedagogika

sohasida keng tadqiq etilgan (Kenjaboyev & Kenjaboyeva, 2022). Biroq insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur, baynalminalchilik, adolat, yaxshilik, burch, qadr-qimmat, mas'uliyat, vijdon, halollik, rostgo'ylik va talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar barcha kasb egalariga birday taalluqli ekanini alohida ta'kidlash lozim.

Dinshunoslik sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar turli din vakillari, jamoatchilik va xalqaro tashkilotlar bilan bevosita muloqotda bo'lganligi sababli, ularning deontologik kompetentligi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, globallashuv sharoitida dinshunoslarning ingliz tilida muloqot qila olishi va shu tilda axloqiy-falsafiy masalalarni ifoda eta bilishi zamonaviy kasbiy talab sifatida belgilanmoqda.

Shu nuqtai nazardan, ingliz tili o'qitish jarayonini deontologik mazmun bilan boyitish — ya'ni to'rt ko'nikmani (reading, writing, listening, speaking) kasbiy axloq masalalari bilan uyg'unlashtirish — dinshunoslik ta'limini yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradi. Ushbu maqolada mazkur imkoniyatlar ilmiy asoslangan holda tahlil etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek olimlari orasida deontologik kompetentlik masalasini chuqur o'rganan Kenjaboyev va Kenjaboyeva (2022) pedagogik deontologiya va kompetentlikni yaxlit tizim sifatida ko'rib, o'qituvchilarning kasbiy axloq me'yorlariga rioya etishi ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi. Ularning tadqiqoti deontologik kompetentlikni shakllantirishda nazariy bilimlar bilan amaliy mashg'ulotlar uyg'unligining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

Farmatsevtika sohasida M.A Narzullayeva (2026) etika va deontologiyani kasbiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida o'rganib, axloqiy me'yorlarning kasbiy samaradorlikka ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot deontologiyaning tibbiyotdan tashqari sohalarda ham qo'llanilishi mumkinligiga dalil bo'ladi.

Sport ta'limida T.B.Xamarayev (2025) deontologik kompetentlikni mutaxassisning kasbiy o'sishidagi hal qiluvchi omil sifatida baholab, uni shakllantirish yo'llari va mexanizmlarini taklif etadi. Shuningdek, T.S.Vohid o'g'li va T.B.Xamarayev (2025) bioetika va deontologiya asoslarining amaliy tibbiyotda qo'llanilishi bo'yicha qimmatli xulosalar keltiradi.

Xorijiy adabiyotlarda ingliz tili o'qitishini kasbiy axloq bilan uyg'unlashtirish masalasi Content and Language Integrated Learning (CLIL) va English for Specific Purposes (ESP) yo'nalishlari doirasida o'rganilgan (Hutchinson & Waters, 1987; Coyle et al., 2010). Biroq dinshunoslik sohasida ushbu yondashuv alohida tadqiqot

ob'yekti sifatida ko'rib chiqilmagan — bu esa mazkur maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi: mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish; dinshunoslik ta'limidagi ingliz tili o'quv dasturlarini deontologik mazmun nuqtai nazaridan tahlil etish; ingliz tilining to'rtta ko'nikmasini deontologik materiallar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha amaliy model ishlab chiqish.

Tadqiqot O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining dinshunoslik fakultetlari uchun mo'ljallangan bo'lib, 1-kurs bakalavr bosqichi talabalariga qaratilgan.

Ingliz tili ko'nikmalari va deontologik kompetentlik: integrativ yondashuv

O'qish (Reading) ko'nikmasi

O'qish ko'nikmasini rivojlantirish jarayonida dinshunoslik talabalari uchun deontologik mazmundagi inglizcha matnlar tanlash alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, turli dinlarning axloq kodekslari, BMT ning din erkinligi bo'yicha hujjatlari, din va jamiyat munosabatlariga bag'ishlangan akademik maqolalar o'qish materiallari sifatida qo'llanilishi mumkin. Bunday matnlar talabada mas'uliyat, vijdon va halollik haqida chuqur tushuncha shakllantirishga xizmat qiladi.

Masalan, "Religious Freedom and Human Dignity" mavzusidagi autentik matnni o'qish jarayonida talaba bir vaqtning o'zida ingliz tili leksikasini (Vocabulary) o'zlashtiradi, kasbiy terminologiya bilan tanishadi va insonning qadr-qimmatini hurmat qilish kabi deontologik qadriyatni his-tuyg'u bilan idrok etadi. O'qish so'nggi tahlil va muhokama bilan yakunlanganda, deontologik kompetentlik yanada mustahkamlanadi.

Yozish (Writing) ko'nikmasi

Yozish ko'nikmasi orqali talabalar o'z axloqiy qarashlarini mantiqli va aniq ifodalashni o'rganadi. Deontologik mazmundagi yozma topshiriqlar quyidagi shakllarda taqdim etilishi mumkin: kasbiy etika haqida insho (essay, blog-post, internet forum post) yozish; real hayotiy vaziyatlarni tahlil qiluvchi case study yozish; turli dinlarning axloqiy me'yorlarini qiyoslab tahlil qiluvchi akademik esse.

Masalan, "The Role of Honesty in Interfaith Dialogue" mavzusida argumentli esse yozish talabani bir vaqtning o'zida ingliz tilida yozma nutqini rivojlantirishga va rostgo'ylik, halollik, baynalminalchilik, tolerantlik kabi deontologik fazilatlarni o'ziga singdirishga undaydi. Bunday topshiriqlar talabaning kasbiy fikrlash madaniyatini ham oshiradi.

Tinglab tushunish (Listening) ko'nikmasi

Usgbu ko‘nikmani shakllantirish va rivojlantirish uchun deontologik mavzulardagi audio va video materiallar — TED ma‘ruzalari, BBC podkastlari, din va axloq bo‘yicha mutaxassislar intervyulari va boshqa autentik materiallar keng qo‘llanilishi tavsiya etiladi. Ushbu materiallar orqali talabalar nafaqat ingliz tilida tinglash va tushunish ko‘nikmalarini oshiradilar, balki yetakchi mutaxassislarning kasbiy axloq haqidagi fikrlarini eshitib, o‘zlarining qadriyat tizimini boyitadilar.

Masalan, "Ethics in Religious Leadership" mavzusidagi TED loyihasi ishtirokchilarining nutqini, ya‘ni ma‘ruzasini tinglagandan so‘ng, talabalar juftlikda fikr almashib, eshitgan ma‘lumotlarni kasbiy faoliyatga tatbiq etish yo‘llarini muhokama qiladilar. Bu jarayon vatanparvarlik, adolat va burch kabi tushunchalarni amaliy jihatdan anglashga ko‘maklashadi.

Gapirish (Speaking) ko‘nikmasi

Gapirish ko‘nikmasi deontologik kompetentlikni shakllantirishda eng samarali vosita hisoblanadi, zero bu ko‘nikma talabaning axloqiy pozitsiyasini ommaviy ravishda ifodalashini talab etadi. Rolli o‘yinlar, debatlar va simulyatsiya mashqlari orqali talabalar real kasbiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishni mashq qiladilar.

Masalan, "A Religious Advisor Mediating a Community Conflict" rolini o‘ynaydigan talabaga insonparvarlik, adolat va talabchanlik kabi fazilatlarni qo‘llash zaruriyati tug‘iladi. Bunday mashqlar talabaning kasbiy identitetini mustahkamlaydi va ingliz tilida erkin muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ingliz tili ko‘nikmalarini deontologik mazmun bilan uyg‘unlashtirish bir qancha pedagogik afzalliklarga ega. Birinchidan, talabalar tilni faqat muloqot vositasi sifatida emas, balki kasbiy axloqiy fikrni ifodalash vositasi sifatida qabul qiladilar. Ikkinchidan, autentik materiallar bilan ishlash talabalarda milliy g‘urur va baynalminalchilikni bir vaqtda tarbiyalash imkonini beradi — ya‘ni o‘z qadriyatlarini saqlab, boshqa madaniyatlarni hurmat qilishni o‘rganadilar.

Uchinchidan, so‘zlash va yozish ko‘nikmalari orqali talabalar o‘z deontologik pozitsiyasini himoya qila olish malakasini hosil qiladilar, bu esa kelajakdagi kasbiy faoliyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

To‘rtinchidan, tinglash va o‘qish ko‘nikmalari xorijiy mutaxassislarning tajribasidan o‘rganish imkonini beradi.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilar taklif etiladi: dinshunoslik fakultetlari ingliz tili dasturlariga deontologik mazmundagi mavzular va matnlarni kiritish; semestral loyiha ishlari sifatida kasbiy axloq masalalariga bag‘ishlangan inglizcha tadqiqot ishlarini taqdim etishni joriy etish; chet el dinshunoslik muassasalari vakillari bilan ingliz tilida onlayn muhokamalar tashkil etish.

XULOSA

Ushbu maqolada dinshunoslik yoʻnalishi talabalarida ingliz tili koʻnikmalari orqali deontologik kompetentlikni shakllantirish ilmiy jihatdan asoslab berildi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy gʻurur, baynalminalchilik, adolat, yaxshilik, burch, qadr-qimmat, masʼuliyat, vijdon, halollik, rostgoʻylik va talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar dinshunoslik sohasida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Toʻrtta koʻnikma — reading, writing, listening, speaking — ushbu fazilatlarni kasbiy muhitda ingliz tili orqali shakllantirish va mustahkamlashning samarali vositasi ekanligi isbotlandi.

Kelgusida ushbu yondashuv eksperimental tekshiruvdan oʻtkazilishi, yaʼni nazorat va tajriba guruhlarini orasida deontologik kompetentlik darajasini qiyosiy oʻrganish maqsadga muvofiq. Bu esa tadqiqotning ilmiy salohiyatini yanada oshiradi va Oʻzbekiston oliy taʼlimi uchun amaliy ahamiyat kasb etadigan xulosalar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press.
2. Dilbar, K. (2024). The principles of deontological ethics. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(5), 56-59.
3. Dilbar, K. (2025). EXTENSIVE READING IN TEACHING A SECOND LANGUAGE. *BBC*, 27, 58.
4. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. Cambridge University Press.
5. Karimdjanoyna, X. D. (2025). INNOVATION DARS REJALARI (SIOP, UBD, UDL, 5E) ASOSIDA XORIJIY TILLARNI OʻQITISH JARAYONINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 83(6), 219-225.
6. Kenjaboyev, A., & Kenjaboyeva, D. (2022). Pedagogik deontologiya va kompetentlik. Termiz: "Surxon-nashr" nashr-matbaa markazi nashriyoti.
7. Khasanova, D. (2019). The impact of effective teaching Grammar in CLT. *Вестник педагогики: наука и практика*, (47), 13-14.
8. Khasanova, D. (2023). Enhancing english language teaching for islamic studies students: a focus on curriculum design. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(12), 190-195.
9. Khasanova, D. (2025). READING-DRIVEN TASKS AS A PEDAGOGICAL APPROACH TO ENHANCING READING SKILLS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(3), 212-216.

10. Khasanova, D. Teaching English for religious studies learners.
11. Qizi, S. B. M., & Azizxonovna, N. M. (2026). Farmatsevtik tashkilotlarda etika va deontologiya. *Pedagogs International Research Journal*, 98(1), 156–169.
12. Tuyiyevich, X. B. (2025). Deontologik kompetentlik va uning sport ta'limidagi o'rnini. *Izlanuvchi*, 1(5), 44–49.
13. United Nations. (1981). Declaration on the Elimination of All Forms of Intolerance and of Discrimination Based on Religion or Belief. UN General Assembly.
14. Vohid o'g'li, T. S., & Turayevich, Y. O. (2025). Bioetika va deontologiya asoslarini xirurgik bemorlarni qabul qilishda qo'llanishining ahamiyati. *Obrazovaniye, nauka i innovatsionnyye idei v mire*, 83(7), 165–169.